



Ansambl sinfi maqsad va vazifalari. Ansambl haqida tushuncha

Adxamova Ma'suma Anvarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

ijtimoiy-gumanitara fanlar va san'at

fakulteti Musiqa ta'lim yo'nalishi

2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa san'atida ansambl jamoalarining kelib chiqishi tarixi va maqsad, vazifalari shuningdek ularning faoliyatini amalga oshirish uslublari xaqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: ansambl, musiqachilar, ijrochilar, vokal, cholg'u asboblari, musiqiy guruhlar, xonanda, ansambl sinfi, orkestr

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va ashula borki uni o'z ijtimoiy va madaniy xayotlarining muhim bo'lagi deb bilgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz cholishga o'rgatish ota-onalarning orzusi sanalgan, shu niyat bilan xonadonda biron cholg'u soz saqlanishi odat qilingan. Kuy va oxangni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, ruxiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, xulq-odobi va yaxshi fazilatlari shakllanib borishida katta ta'sir kuchiga ega bo'lishi chuqur anglab etilgan. ¹

Yevropa mamlakatlarida esa XIII asrning oxiriga kelib, cholg'uchilardan tashkil topgan jamoalar shu qadar kattalashib, ommalashib ketganki, hatto maxsus uyushmalar

¹ Дилнозахон Обиджановна Абдурахмонова ЧОЛГУАНСАМБЛЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ SCIENCE AND INNOVATION



(guruh) tashkil etila boshlangan. Ular xuddi boshqa kasb egalari kabi guruhlar tashkil qilgan. Bu guruhlar qoida va qo'llanmalar ishlab chiqib, ansambllarda ijro etgan musiqachilarning huquqlarini belgilab bergan. Ansambllarda qadim zamonlardan buyon puflab chalinadigan asboblari ishtirok etib kelgan. Ansambl jamoalarisiz bayram kechalari jumladan to'y marosimlar, mavsumiy bayramlar o'tkazilmagan

XIII asr so'ngiga borib, Yevropadagi har bir shahar o'z puflab chalinadigan asboblari orkestriga ega bo'lgan. Ular shu qadar mashhurlikka erishganki, hatto qo'shinlar yurishiga hamroh bo'lib, jo'rlik qila boshlagan. Bu XVI asrda sodir bo'lgan va armiya bilan birga yurgan birinchi orkestr yollangan shahar aholisidan iborat bo'lgan. Keyinchalik polklar o'z orkestrlarini tuzib, ularga sozandalarni jalb qila boshlagan. Hozirgi vaqtda AQSh armiyasining turli bo'linmalariga tegishli orkestr va ansambllar juda mashhur. Bular misli yo'q ajoyib musiqiy jamoalar. Orkestrlarga nafaqat harbiy tashkilotlar qiziqish bildirgan balki, maktablarda ham ularni tashkillashtirgan. Vaqt o'tishi bilan ko'plab maktab ansambllari professional darajadagi ijro mahoratiga erishgan.

Shu o'rinda Ansambl so'ziga to'g'ri o'tsak

Ansambl — fransuzcha so'zdan olingan bo'lib ensemble, birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik dsegan ma'nolarni anglatadi Musiqada ma'lum musiqi asarlarining bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etilishi yohud sozanda va ashulachilarning kichikroq to'ldasiga mo'ljallangan musiqi asari hisoblanadi.²

Opera, oratoriya va kantatalarda ham ansanbl bo'ladi.

Unda ijrochilar soniga qarab

- duet (2 kishi),
- trio yoki tertset
- (3 kishi), kvartet
- (4 kishi), kvintet

² I.Akbarov. Musiqi lug'ati. -Toshkent. 1987y. 112 - bet



- (5 kishi), sekstet
- (6 kishi), septet va hokazolarga bo'linadi.

Oddiy qilib aytganda ansambl deb - jamoa bo'lib ishlashga aytiladi.

Ansambllarning mashhur bo'lgan turlaridan biri bu — konsert ansambli. Konsert ansambllari va simfonik orkestr bilan bir xil tamoyil asosida yaratilgan. Odatda ansambllarda torli cholg'u asboblari qo'shimcha ikkinchi ovoz vazifani bajaradi va ularning o'rnini puflab chalinadigan yog'och asboblari egallaydi. Ansambldagi har bir cholg'u guruhining o'z partiyasi bor.

Ansanblning har bir ijrochisi musiqa ijrochiligida yakkaxon ijroda ijro eta oladi. Faqat ularning ijroviy jarayonidagi yo'nalishlari ularni bir-biridan farqlab turadi. An'anaviy xonanandalik ijrochiligida mavjud bo'lgan ansambl turlari ijrochining kuylovchi bilan hamohangligini eshitgan holda ijro etmog'i lozim.

O'zbek musiqa ijrochiligida ansambl, ya'ni jamoa bo'lib ijro etish ko'nikmalari qachonlardir amaliyotga kirib kelganini xalq ijodiyotidan bilib olish mumkin. Bu xalq milliy marosimlari, tomosha san'ati, teatrlashgan jamoalar xonishlarida o'zini namoyon etgan. An'anaviy ijrochilikning jamoaviy xonishlari ham vaqt taqozosi bilan qo'llanilib, sekin-asta an'anaga aylangan bo'lishi mumkin. Bunga asosiy sabab qilib asarlarning keng ko'lamlilik, katta avjlar bilan ijro etiladigan murakkablarini yaratilish va albatta ochiq joylarda xonish qilinishlarni ko'rsatish mumkin.

XIX asrning oxirlari – XX asrning boshlarida O'zbekistonda ikki turdagi musiqiy ansambl mavjud bo'lgan.

Birinchi turi faqat puflab chalinadigan va zarbli musiqa asboblari iborat bo'lgan bo'lsa,

Ikkinchisi asosan torli asboblardan tashkil topgan bo'lib, doira va bir necha puflab chalinadigan musiqa asboblari ularga jo'r bo'lgan. Ularning ijro sohalari ham turlicha bo'lgan. Puflab chalinadigan va zarbli sozlardan iborat ansambl saroylarning ochiq maydonlarida chiqishlar qilgan, milliy tantanalar va harbiy tadbirlarda, qo'g'irchoq



teatrlarining sahna ko‘rinishlari, masxaraboz va dorbozlarning chiqishlarida ishtirok etgan. Musiqachilarning ham xuddi hunarmandlar singari o‘z tartib-qoidalarini bo‘lgan. Musiqiy asboblarning aksariyatini tut, o‘rik va yong‘oq daraxtlaridan tayyorlangan. Ularda mis, bronza va jez ham qo‘llanilgan. Musiqiy soz torlarini yasashda ipak iplar, ot yoli, shuningdek, quritilgan qo‘y yoki echki ichagidan ham foydalanishgan.

Musiqiy sozlarning bezaklariga alohida e‘tibor qilingan: ularga o‘yma naqshlar solinishi barobarida, turli yog‘och parchalaridan bezaklar tushirilgan. O‘zbeklarning an‘anaviy milliy musiqiy asbobi dutor bo‘lib, undan qadimgi davrdan honadonlarda onalar qiz farzandlariga ushbu milliy cholg‘uda ijro etishish ko‘nikmalarini singdirib borganlar va dutor cholg‘usi qo‘shiqqa jo‘r bo‘luvchi soz sifatida foydalanilgan. Bundan tashqari, uch torli tanbur ham keng tarqalgan bo‘lib, professional musiqachilarning asosiy cholg‘u asbobi hisoblangan. Ba‘zi manbalarda o‘zbek halqining qadimiy cholg‘usi bo‘lgan dutor va tanbur haqida hikoya va rivoyatlar ham bor. Naprstek nomidagi muzeyning musiqiy sozlardan iborat uncha katta bo‘lmagan to‘plamida Toshkentdan keltirilgan membranofonlar, xordofonlar va aerofonlar mavjud. Ularni xususan 1892 yilda sotib olingan nog‘ora va doira, XX asrning ikkinchi yarmida yasalgan tanbur, dutor, qo‘shnay kabilar tashkil etadi.

Ilk ansanbl 1923-yili To‘xtasin Jalilov rahbarligida, 1927-yili radio qoshida, Yunus Rajabiy rahbarligida tashkil etilib, faoliyat yuritib kelgan. Turli tarkiblarda tuzilgan ansanblning faoliyati XX asrning birinchi yarmidayoq keng ommalashgan va amaliyotga keng joriy qilingan. 1957-yili Yunus Rajabiy O‘zbekiston teleradiosi qoshida Rajabiy rahbarligida maqomchilar ansambl tashkil etilishi ulkan voqeaga aylandi. Ansambl o‘z faoliyatini o‘zbek mumtoz musiqa merosini qayta tiklash va ijro amaliyotini mustahkamlash bilan boshlangan. Natijada Shashmaqom tarkibidagi aksariyat namunalari ijro etilib, plastinkalarga, magnit tasmlarga yozib olingan. Avvalo, ushbu ansamblning tarkibi eng ko‘zga ko‘ringan, mashhur va ustoz san‘atkorlardan tuzilgan. Ulardan Shorahim Shoumarov, Ergash Shermuhammedov, Fazliddin Shukur sozandalik va xonandalikda



benazir ustozlar bo'lgan. Shashmaqom va maqom yo'llarining bilimdonlari bo'lganliklari, ansambl rahbarlarining benazir maqomdonligi sabab musiqiy merosning to'liq hamda mukammal ijrosiga erishganlar. Buning barchasi bugungi kungacha ijrochilar uchun dasturulamal sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu ansamblidan keying avlod uchun ustoz Yunus Rajabiyning ijro uslubi, qoldirgan ulkan merosi namunadir. Shu boisdan har bir tashkil etilgan san'atkorlar jamlangan ansambl avvalo mavjud merosni o'zlashtirishga, agar bilimi, ilmi va imkoniyati bo'lsa uning yangi talqinini topishga harakat qiladi. Eng muhimi, o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab turli viloyatlarda, musiqa bilim yurtlarida, madaniyat maskanlarida jamoa bo'lib ijro etuvchi maqomchilar ansambllari tashkil etilib, faoliyat yuritib kelmoqdalar. Oxirgi 30 yil davomida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambilining o'zi shashmaqomning aksariyat qismlarini yangi talqinda magnit tasmalariga yozishga muvaffaq bo'ldilar. O'zbekiston davlat konservatoriyasining An'anaviy ijrochilik kafedrasida o'qituvchilaridan tashkil topgan Faxriddin Sodiqov nomidagi maqomchilar ansambl o'z faoliyati bilan ushbu sohada yana bir mukammal jamoaning bunyod bo'lganligini namoyon etdi. Bu ansamblning oliy o'quv dargohida tashkil etilgani kelgusi avlodning zamonga munosib tarbiyalanishida o'quv laboratoriyasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ansambl – bu, jamoa shunday ekan jamoaning tartibli bo'lishi, ovozlarning hamohang bo'lishi, asarlarni namoyish etishi uchun ularni tarbiyalash lozim. Ya'ni ansamblida ijrosining o'ziga xos tarbiyasiga e'tibor qaratiladi. Ana shu tarbiya orqali ansambl bo'lib ijro etish sifatleri shakillanadi.

Ansambl sinfi – bu musiqiy ta'lim tizimida, ayniqsa san'at maktablarida keng qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, o'quvchilarni musiqiy jamoada ijro etishga o'rgatadi. Ansambl tushunchasi bir nechta ijrochining birgalikda asar ijro etishi bilan bog'liq. Bunda har bir ijrochi o'z rolini bajaradi va boshqa ishtirokchilar bilan hamkorlikda musiqiy kompozitsiyani yaratadi.



Ansambl sinfi maqsadi – talabalarni birgalikda ijro qilishga, musiqiy jamoa doirasida o‘zaro muloqot va hamkorlik qilishga o‘rgatishdir. Bunda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

1. Jamoaviylik – har bir ishtirokchi jamoaning bir qismi bo‘lib, o‘z partiyasini ijro etadi va boshqa a‘zolar bilan muvofiqlikni saqlaydi.
2. Tinglash va muvofiqlik – ansambl a‘zolari bir-birini diqqat bilan tinglashi, hamjihatlikda harakat qilishi kerak.
3. Repertuar ijrosi – ansambl sinfida turli musiqiy asarlarni jamoaviy tarzda ijro qilish o‘rgatiladi.
4. Ijrochilik mahoratini oshirish – o‘quvchilar birgalikda ijro etish orqali texnik va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Ansambl sinfi asosan vokal yoki asbobiy ansamblarni o‘z ichiga oladi. Bu sinf jamoaviy ijro uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, talabalar o‘zaro ijodiy hamkorlik va texnik mahoratni birgalikda oshiradilar.

Cholg‘uchilar ansambli fanidan saboq beruvchi rahbarning eng dolzarb, birlamchi vazifasi – ta‘lim va tarbiyani jamoaviy ijrochilik xususiyatlariga xos holda moslashtirib borishdir. O‘z o‘rnida rahbar har tomonlama bilimli, ijrochilik masalasida ilmi va muayyan tarjibaga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Odatda, o‘quv jarayonida ansambl tarkibi vaziyat taqozosi bilan tuziladi. Ansambl ishtirokchilarining bilim mavqeyi ham turlicha bo‘lishi muqarrar. Shu bois, ansambl rahbari o‘z ish faoliyatini muayyan tarkib asosida tuzishi va olib borishi taqozo etiladi. O‘z imkon darajasidan kelib chiqqan holda o‘zlashtirishning turli uslublariga tayaniladi.

Hulosa qilib aytganda o‘quv jarayoniga mos hamda talabalarining ijro saviyasini inobatga olgan holda quyidagicha uslub asosida ish yuritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga ko‘ra avvalo ansambl qatnashuvchilarining ma‘lum guruhlariga bo‘lish va ularni jo‘rnavezlik ijro amallariga o‘rgatish lozim. Guruhlar bilan ishlash jarayonida asarni mukammal o‘zlashtirgandan so‘ng, jamoa bo‘lib ansambl sifatida birlashish yaxshi



natijalarni olib keladi. Tarbiya jarayonining yana bir muxim tomoni shundaki, talabalar imkoniyatiga mos, hamda ruhiyatiga xos ijro dasturini tanlashdir. So'ngra tanlangan asarni sozandalarga o'rgata borishda talabalarning darsga qatnashishi jarayonini muntazam ravishda kuzatib borish umumiy tarbiyaning muhim omillaridan biri sifatida gavdalanadi.

Ansamblda ta'lim olish bolalarga musiqiy savodxonlikni oshirish va ijro texnikasini mukammal egallashga, ijodiy salohiyatini oshirishga intizomli bo'lib, ijodiy mehnat va o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantirishga yordam berdi. Bu esa ularning kelajakda professional san'atkor bo'lishiga zamin yaratadi. Yana bolalar ansamblda jamoa bilan ishlash va birgalikda ijod qilish tajribasini qo'lga kiritibgina qolmay, musiqachilar o'rtasida hamkorlik qilish va o'zaro hurmatga ham sazovar bo'ladi. Bolalar o'z xalqining musiqa va madaniy merosiga yaqinlashib, milliy qadriyatlarni o'rganib, bu merosni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish mas'uliyatini his qilishadi.

Xulosa qilib aytganda, ansambl bolalar uchun nafaqat musiqa o'rgatish maktabi balki ularning madaniy va ma'naviy tarbiyasida ham muhim o'rin tutgan bo'lib, milliy merosni davom ettiruvchi yosh avlodni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SHavkat Miromonovich "Xozirgi zamon va yangi O'zbekiston". "O'zbekiston" nashiryoti 2024.
2. Abdurahimova Dilnozaxon Obidjanovna "Cholg'u ansambllarini tashkil etishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari" SCIENCE AND INNOVATION International SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
3. I.Akbarov. "Musiqa lug'ati". -Toshkent. 1987y. 112 - bet
4. Axmad Odilov "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi". "O'qituvchi nashiryoti" 1995-yil



5. Djalilova, D. O. (2023). CHOLG'U ANSAMBLI VA MUSIQIY ASAR USTIDA ISHLASH. SCHOLAR, 1(28), 277–287. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10026753>
6. Yunus Rajabiy. “Shashmaqom”. Toshkent. 5-jild, 1973.
7. Sh. Umarov. “Musiqi cholg’ularini o’rganish”. 2018. 9-bet.
8. Sh. Umarov. Musiqi cholg’ularini o’rganish. 2018. 7-bet.
9. S.Azizboev. “An’anaviy cholg’u ansabli”. “Musiqi” nashiryoti. Toshkent 2009-yil 6-bet